

## **NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

“Tenge Bank” aksiyadorlik tijorat bankining missiyasi mijozlar va aksiyadorlarning pul mablag‘lari saqlanilishi, samarali joylashtirilishi va ko‘payishini ta‘minlagan holda, O‘zbekistonda xizmatlarni xalqaro standartlar darajasida taqdim etish hisoblanadi, shuningdek Bank u va mijoz o‘rtasida nizolar va kelishmovchiliklar paydo bo‘lishini oldini olish uchun barcha choralar ko‘radi.

“Tenge Bank” aksiyadorlik tijorat banki va bank mijozi (jismoniy yoki yuridik shaxs) o‘rtasida tuzilgan shartnomalarni bajarish vaqtida paydo bo‘lishi mumkin nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o‘rtasida do‘stona muzokaralar yo‘li bilan imkon boricha hal etiladi.

Nizolar va kelishmovchiliklarni hal etish uchun barcha uchrashuvlar va muzokaralar Bank tomonidan Mijoz uchun qulay vaqtda tashkil etiladi. Uchrashuv Bankning tegishli mutaxassisleri ishtirokida o‘tkaziladi va uchrashuvning barcha ishtirokchilari imolashi shart bo‘lgan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Bankning Mijozi tomonidan shartnomaviy majburiyatlar, shu jumladan kredit shartnomasi bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik paydo bo‘lgan taqdirda, Bank Mijozga kredit yuklamasi yanada oshib ketmasligi maqsadida, muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik paydo bo‘lgan sanadan 7 (etti) kalendar kun ichida Mijoz bilan shartnomada kelishilgan barcha aloqa usullaridan, shu jumladan elektron aloqa vositalaridan yoki qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanib, Mijozga muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik paydo bo‘lganligi to‘g‘risida xabar beradi va qarzdorlikni qoplash jadvalini ilova qiladi.

“Tenge Bank” aksiyadorlik tijorat banki qonunchilik talablarini hisobga olib, Mijozga iste‘mol kredit shartnomasi bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlikning holati, muddatlari, summasi, tarkibi va uni qaytarmaslik bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari to‘g‘risida xabar beradi, Bank shuningdek Mijozdan muddati o‘tkazib yuborilgan qarzdorlik paydo bo‘lish sabablarini aniqlash huquqiga ega.

Mijoz tomonidan kredit shartnomasi bo‘yicha asosiy qarz summasini qaytarish va (yoki) foizlarni to‘lash muddatlari buzilganda, Bank Mijozga ushbu holat to‘g‘risida qo‘shimcha xabar beradi va yozma talabnoma yuboradi.

Mijoz tomonidan talabnomada ko‘rsatilgan muddatdan 30 kun ichida talablarni lozim darajada bajarmaganda, Bank sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal etish imkoni bo‘lmagan taqdirda, Bank va Mijoz ular o‘rtasida tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan nizolarni sudgacha tartibga solishning tartib-taomili amalga oshirilganidan so‘ng, da‘voni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi doirasida tegishli sudga berish huquqiga ega.